

UDC: 37(045)(575.1)

ORCID: 0000-0003-0824-4272

### “FIRIBGARLIK JINOYATI UCHUN JAVOBGARLIK MASALALARI”

**Fayzullayev Abror Faxriddin o‘g‘li**

Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi o‘qituvchisi

[abrorfayzullayev551@gmail.com](mailto:abrorfayzullayev551@gmail.com)

**Baxtiyorov Jamoliddin Baxtiyor o‘g‘li**

Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi o‘qituvchisi

[jamoliddinturk@gmail.com](mailto:jamoliddinturk@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7844165>

**Annotatsiya.** *Firibgarlik jinoyatining tushunchasi va mazmuni, firibgarlik jinoyatining yuridik tavsifi va jinoyatni kvalifikatsiya qilishning o‘ziga xos xususiyatlari, firibgarlik jinoyatining kriminologik tavsifi va uni vujudga keltiruvchi omillar, firibgarlik jinoyatining iqtisodiyot sohasida vujudga kelayotgan yangi turlari va ular bo‘yicha javobgarlik masalalari, kredit munosabatlari va bank plastik kartalari bilan bog‘liq firibgarlik jinoyatlari, sug‘urta sohasida va ijtimoiy to‘lovlar qabul qilish sohasidagi firibgarlik jinoyatlari, iqtisodiyot sohasidagi mulkiy munosabatlarni jinoyat-huquqiy va kriminologik vositalar, moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimidagi suiste‘molliklar, xomashyo resurslari va mehnat resurslarining g‘ayriqonuniy sarflanishi, iqtisodiyotidagi ijobiy ko‘rsatkichlar va noxush tendensiyalar, iqtisodiy erkinlik, narx-navoning erkinlashtirilishi, davlat buyurtmasini bekor qilish, moliya-kredit tizimida pul mablag‘larini taqsimlash, jinoyat huquqi va kriminologiya nazariyasini rivojlantirish, sud-tergov amaliyotida mavjud firibgarlik, aldash yoki ishonchni suiste‘mol qilish, yuridik fakt va voqealar, mulkning sifati, narxi, aybdorning shaxsi, uning vakolati va shu kabi mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil etish bo‘yicha tadqiqot ishlari va chet-el olimlarining fikri va mulohazalari o‘rganib chiqilib amalga oshirilgan ishlar tahlili bo‘yicha qo‘shimcha taklif va tavsiyalar keltirilib o‘tilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Firibgarlik jinoyati, yuridik tavsifi, kriminologik tavsifi, kredit munosabatlari, bank plastik kartalari, sug‘urta sohasi, texnologik vositalar, yuridik fakt, soxtalashtirish.*

### «ВОПРОСЫ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА МОШЕННИЧЕСТВО»

**Аннотация.** *Понятие и содержание преступления мошенничества, юридическая характеристика преступления мошенничества и особенности квалификации преступления, криминологическое описание преступления мошенничества и факторов, его обуславливающих, новые виды преступления. преступления мошенничества, возникающие в экономике, и вопросы ответственности за них, кредитные отношения и преступления мошенничества, связанные с банковскими пластиковыми картами, преступления мошенничества в сфере страхования и в сфере получения социальных выплат, уголовно-правовые и криминологические средства отношений собственности в экономике, злоупотреблений в финансово-экономической и банковской системе, сырьевого и незаконного использования трудовых ресурсов, положительных показателей и отрицательных тенденций в экономике, экономической свободы, либерализации цен, отмены госзаказа, распределения средств в финансово-кредитная система, уголовно-правовая и криминологическая Разработка теории мошенничества, обмана или злоупотребления доверием, юридических фактов и событий, качества и цены имущества,*

личности виновного, его полномочий и правильной организации такой деятельности, исследований и мнений зарубежных ученых. изучены замечания и сделаны дополнительные предложения и рекомендации по анализу проведенной работы.

**Ключевые слова:** Мошенничество, юридическая характеристика, криминологическая характеристика, кредитные отношения, банковские пластиковые карты, страховая отрасль, технологические средства, юридический факт, подлог.

### **"ISSUES OF RESPONSIBILITY FOR THE CRIME OF FRAUD"**

**Abstract.** *The concept and content of the crime of fraud, the legal description of the crime of fraud and the peculiarities of qualifying the crime, the criminological description of the crime of fraud and the factors that create it, the new types of fraud that arise in the field of Economics and the issues of liability for them, fraud crimes related to credit relations and bank plastic cards,, criminal legal and criminological means of property relations in the field of Economics, abuses in the financial and economic and banking system, illegal consumption of raw materials resources and labor resources, positive indicators and unpleasant trends in its economy, Economic Freedom, price liberalization, cancellation of a state order, distribution of funds in the financial and credit system, development of criminal law and criminology theory, , additional proposals and recommendations were made on the analysis of the quality of the property, the cost, the identity of the culprit, his authority and the work carried out with the study of the correct Organization of such activities and the opinion and reasoning of foreign scientists.*

**Keywords:** *crime of fraud, legal description, criminological description, credit relations, bank plastic cards, insurance industry, technological means, legal fact, forgery.*

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning turlaridan biri hisoblangan firibgarlik iqtisodiyot sohasidagi islohotlarni amalga oshirilishiga to'sqinlik qilishi bilan birga mulkiy munosabatlarga xam jiddiy xavf tug'diradi.

Firibgarlik jinoyatining yuridik tavsifi va jinoyatni kvalifikatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Qonunchiligimizga ko'ra, firibgarlik jinoyati uchun javobgarlik:

Firibgarlik, ya'ni aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritish -

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Firibgarlik:

a) ancha miqdorda;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa,

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Firibgarlik:

a) ko'p miqdorda;

b) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;

v) xizmat mavqeyidan foydalangan holda;

g) axborot tizimidan, shu jumladan axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan bo'lsa

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud muayyan huquqdan mahrum etilgan holda besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Firibgarlik:

a) juda ko'p miqdorda;

b) o'ta xavfli retsivist tomonidan;

v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa

bazaviy hisoblash miqdorining to'rt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki sakkiz yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplangan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi.

Firibgarlikning obyekti o'zganing mulki yoki mulkiy huquqlari hisoblanadi.

Firibgarlik predmeti sifatida mulk egasiga qonuniy asoslarda tegishli bo'lgan, moddiy qiymatga ega ko'char va ko'chmas mulk va ularga bo'lgan mulkiy huquqlar hisoblanadi.

Obyektiv tomondan firibgarlik aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritishdir. Firibgarlikda jabrlanuvchi aybdor qonuniy harakat qilayapti, deb o'ylaydi va o'z mulkini aybdorga ixtiyoriy ravishda topshiradi va aybdorning g'ayriqonuniy harakat sodir etayotganligini bilmaydi.

Firibgarlik o'zganing mulkini yoki mulkka bo'lgan huquqini aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan haq to'lamay egallashda ifodalanib, buning ta'sirida mulk egasi yoki boshqa shaxs yoxud vakolatli hokimiyat organi mulkni yoki unga bo'lgan huquqni boshqa shaxsga beradi, yoinki ushbu mulk yoki unga bo'lgan huquq boshqa shaxs tomonidan olib qo'yilishiga imkoniyat beradi.

Fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan majburiyatlar (masalan, qonunga muvofiq tuzilgan qarz, kredit, arenda, prokat, pudrat, omonat saqlash va v.k.)ni bajarmaganlik uchun javobgarlik, basharti shaxsninig harakatlarida jinoyat alomatlarini mavjud bo'lmasa, fuqarolik qonunchiligi normalari bo'yicha kelib chiqadi. Shu munosabat bilan fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarmagan shaxslarga nisbatan ishlarni ko'rishda, sudlar jinoyat ishini jinoiy hodisa yuz bermaganligi sababli tugatish masalasini muhokama etishlari hamda manfaatdor shaxslarga bunday masalalar fuqarolik yoki iqtisodiy sud ishlarini yuritish tartibida hal qilinishi zarurligi qonunosti hujjatlar orqali izohlangan.

Rossiya Federatsiyada ham ushbu sohada izlanish olib borgan mutaxassislar fikriga etibor bersak, ular xam o'z qarashlari bilan ajralib turishadi. Masalan, S.Shepalov yozishicha, firibgarlikda aldash yoki bironing ishonchini suiiste'mol qilish mulkni egallab olish usuli bo'lib xizmat qiladi, ular o'rtasida ayblanuvchi mulkka egalik qilish huquqini qo'lga kiritish bilan bir qatorda maqsadli aloqa belgilanishi kerak. Bunda albatta aldovning mazmun va shakliga egalini nazarda tutish lozim bo'ladi.

Mixal O, Xmelova M esa, firibgarlikni o'z mazmuniga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'ladi:

1) shaxsga taalluqli bo'lgan aldov;

Insonlarni aldash yo'li bilan ularning mulkini yoki mulkiy huquqini qo'lga kiritish amaliyotda tez-tez uchraydi. Bunda firibgar o'zini boshqa shaxs deb tanishtirib,

jabrlanuvchini yangilishtirishi va o'ziga bo'lgan ishonchini yanada orttirib, yolg'on va'dalar berib, mulkini egallab olishi mumkin. Jinoyatchilar faqatgina o'zgaralar nomidan foydalanmasdan, o'zini boshka shaxs deb ham ko'rsatishi mumkin. Masalan, garderobga o'zga nomerni olib kelib, o'zini paltoning, portfelning qonuniy egasiman deb ko'rsatib, ularni olib ketishi mumkin, chunki uning familiyasini garderobchi uchun ahamiyati yo'q;

2) narsa-buyumlarga aloqador bo'lgan aldov;

Odatda, bunday aldovlarda jinoyatchi biror mulkni sotuvchi, jabrlanuvchi esa sotib oluvchi bo'ladi. Mavjud bo'lgan narsani pulini aybdor aldov yo'li bilan oladi yoki yo'q narsani sotishni va'da qiladi. Aldov narsani sifati va o'lchamiga ham bog'lik bo'lishi mumkin;

3) turli harakatlar va ma'lumotlar haqida ishlatiladigan aldov.

Ma'lumki, firibgarlik aksariyat hollarda savdo munosabatlaridan kelib chiqadi. Firibgar olingan narsa uchun pul to'langanligini aytib sotuvchini xotirasini sinab ko'radi va zo'r berib pul mablag'larini to'langanligini isbotlamoqchi bo'ladi. Odatda, bunday hollarda, uning sherigi guvoh, bo'lib sotuvchi pulini olganligini tasdiqlab turadi;

4) yolg'on va'dalar berib aldov yo'li bilan jabrlanuvchi foydasiga biror muhim ishni bajarishni va'da berib mulkni oladi.

Sud-tergov amaliyotidan kelib chiqqan xolda firibgarlikdagi addovning quyidagi shakllarini ko'rsatish mumkin:

1) haqiqatdan xam shunday maqsadi borligini aytib aldash va mulkni talon-toroj qilish:

- jabrlanuvchi tomonidan sotib berish uchun berilgan tovarni olgach, pulini egasiga topshirishga va'da berish;

- jabrlanuvchiga uning puliga biror tovarni olib berishni va'da berish;

- jabrlanuvchi mo'ljallagan yoki tovarning haqiqiy narxidan yuqori pul to'lashga va'da berish;

- chet elga ishga joylashtiraman deb, turli to'lovlar (avans, viza olish, shartnoma tuzish kabilar)ni bahona qilib, jabrlanuvchidan pul olish;

- sud yoki tergovdagi ishini ijobiy hal qilishni vada berib, jabrlanuvchidan pul olish kabilar;

2) jinoyat predmeti: xususiyati, sifati, va soni bo'yicha aldash:

- jabrlanuvchiga berilayotgan yoki jabrlayuvchi tomonidan olingan pul yoki tovarning soni bo'yicha aldab qaytarish;

- jinoyat predmeti bo'yicha to'liq aldash (oltin uzuk o'rniga mis uzukni berish, to'lov sifatida pul o'rniga pulga o'xshash qog'oz berish, qalbaki lotereyani yutuq chiqqan deb berish);

- mulk olish huquqini beruvchi xujjatlar bo'yicha aldash (soxta xujjatlar asosida kvartirani sotish yoki nafaqalar olish):

- qimmatbaxo kog'ozlar bo'yicha aldash (soxta aksiya, veksel kabi qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish).

3) biror bir fakt yoki voqea, xodisa bo'yicha aldash - bunda biror fakt, voqea, xodisa o'tgan bo'lishi yoki kelajakda sodir bo'lishi mumkin, masalan, shaxs o'zining mashinasini sug'urta qiladi, keyin o'zi mashinani o'g'irlanishini tashkil qilib, sug'urta pulini talab qiladi;

4) aybdorning shaxsi bo'yicha aldash — bunda aybdor o'zini hokimiyat vakili (soliq, militsiya kabi xodimlar) qarindoshi kabilar sifatida tanishtirib, jabrlanuvchini aldab, uning mulkini egallaydi;

5) har xil o'yinlar bo'yicha aldash – bunda aybdor turli qimor yoki tavakkalchilikka asoslangan o'yin (karta, xususiy lotoreya o'yinlari kabi)larda jabrlanuvchini qiziqtirgan holda yoki uning o'yinga berilishidan foydalanib mulkni egaldaydi;

6) fol ochish yoki gipnoz yo'li bilan aldash — bunda fol ochishning o'zi jinoyat hisoblanmaydi, lekin aybdor fol ochish yoki gipnoz yo'li bilan jabrlanuvchining mulkini egallashni maqsad qilgan bo'lsa, uning qilmishi firibgarlik sifatida baholanadi;

**Firibgarlik jinoyatini quyidagi bir qator jinoyatlardan farqlash lozim:**

Firibgarlik jinoyatidan aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar etkazish jinoyatini (JK 170-moddasi) farqlash lozim. So'nggi holda shaxs o'zganing mulkini bevosita olib qo'ymasdan va unga nisbatan huquqqa ega bo'lmasdan, qonunga (shartnomaga) ko'ra mulkdor egaligi yoki tasarrufiga o'tishi lozim bo'lgan tovar-pul qimmatliklarini o'zlashtiradi va ular hisobiga boyiydi.

Mulkiy xususiyatdagi g'ayriqonuniy foyda olish maqsadida aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish, misol uchun, shaxs tomonidan qonunchilikda belgilangan to'lovlarni to'lashdan ozod etuvchi qalbaki hujjatlarni taqdim etishda (JK 184-moddasida nazarda tutilgan hollardan tashqari) ifodalanishi mumkin.

Aldov shaxs tomonidan o'zganing mulkini qo'lga kiritishni engillatish maqsadida ishlatilgan bo'lib, mulkni olib qo'yish jarayonida mulk egasi yoki boshqa shaxs uning asl niyatini sezib qolgan, aybdor buni anglasada, biroq mulk egasining erkiga zid ravishda mulkni olishni yoki ushlab turishni davom ettirgan hollarda, qilmish talonchilik sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim (masalan, shaxs mobil telefonni uning egasidan vaqtincha foydalanish uchun so'rab olib, so'ngra talon-toroj qilingan telefon bilan yashiringan holda).

Mansabdor shaxs tomonidan u mansab vakolati yo'qligi yoki o'z xizmat mavqeidan foydalana olmasligi tufayli aslida amalga oshira olmaydigan muayyan harakat (harakatsizlik) uchun pul, qimmatli qog'oz va boshqa moddiy qimmatliklar olinishi, unda mazkur qimmatliklarni egallashga nisbatan qasd mavjud bo'lgan taqdirda, firibgarlik sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Kompyuter firibgarligiga misol qilib, quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

➤ internet tizimida sodir etiladigan kompyuter firibgarligi;

➤ bankomatlardan naqd pulni talon-taroj qilish bilan bog'liq kompyuter firibgarligi. Bunga misol qilib Angliyada kompyuter firibgarlari tomonidan yasalgan «lebanese loops» deb nomlanadigan qurilmani keltirishimiz mumkin. Bu qurilma plastik karta xajmidan biroz yirikroq bo'lib, bankomat tirqishiga kirgiziladi. Kredit karta xujayini pulni olishga xarakat qiladi, biroq bankomat karta ma'lumotlarini uqiy olmaydi, boz ustiga kartani xam qaytarib olib bo'lmaydi. Shu vaqtda firibgar yaqinlashib, yaqinda u bilan xam shunday xol sodir bulganligini va shunchaki pin-kodni yozib ikki marotaba «Cancel» tugmasini bosish kerakligini aytib o'tadi. Karta egasi urinib kuradi va albatta ijobiy natijaga erishilmaydi. U plastik karta bankomatda qoldi deb o'ylaydi va bankka murojaat etish uchun jo'naydi. Firibgar esa, kredit kartani osonlik bilan oladi va undagi mablag'larni talon-toroj qiladi;

➤ kompyuter yordamida qalbaki qurilmalar (kartochkalar va boshka shu kabilar) yasash va ular yordamida kompyuter tizimida sodir kompyuter firibgarligi. Masalan, firibgarlar gavjum erlarda o'z bankomatlarini o'rnatadilar. U tabiiyki, ishlaymaydi. Biroq, plastik kartadan barcha zarur ma'lumotlarni ko'chirib oladi;



➤ kirish-chiqish dasturlarida hiyla-nayrang ishlatish yo'li bilan sodir etiladigan kompyuter firibgarligi: kompyuter firibgarlarining bu turida kodlarga taalluqli ma'lumotlarni almashtirish usuli (data diddling code change) ishlatiladi;

➤ telefon firibgarligi: telefon tizimiga xizmat ko'rsatuvchi kompyuter qurilmalari va protokollarga ta'sir etish orqali telekommunikatsiyaviy xizmatdarga ulanish kabilarda nomoyon bo'ladi.

**Firibgarlik jinoyatining kriminologik tavsifi va uni vujudga keltiruvchi omillar.** Iqtisodiy jinoyatlarning oldini olishning texnik tadbirlari tovar, xom ashyoni tashishning yanada mukammalroq vositalarini ishlab chiqish, o'ta noyob xom ashyo va tovar resurslarini joylashtirish va saqlash joylarida ishonchli qurilmalar o'rnatish, qalbaki hujjatlarni aniqlash usullarini yaratish, soxtalashtirilgan mahsulotlarni shoshilinch aniqlash usullarini joriy etishga qaratilgan.

Mazkur bobning «Firibgarlik jinoyatini oldini olishning asosiy chora-tadbirlari» deb nomlangan qismida firibgarlik jinoyatini keltirib chiqaruvchi omillarning o'rganib chiqilishi asosida oldini olishning quyidagi umumiy va maxsus chora-tadbirlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'lur edi:

**umumiy chora-tadbirlar:** banklar mijozlarga pul mablag'larini kreditga berish chog'ida, ularni tegishli foizlar bilan qaytarib olish imkoniyatini beruvchi mexanizmlarni yaratish; banklar faoliyatida pul kredit berish va o'z vaqtida to'lash bilan bog'liq masalalarni hal etishga to'siq bo'ladigan holatlarni bartaraf etish; korxonalar, tashkilot va muassasalarga olingan daromadlardan erkin, o'z xohishicha foydalanishga aralashmaslikning kafolatlanishi; xo'jaliklarda tashkiliy-xo'jalik nazoratini kuchaytirish; kadrlarni to'g'ri tanlash; aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasida targ'ibot hamda tashviqot ishlarini olib borish va boshqalar tashkil qiladi;

**maxsus chora-tadbirlar:** profilaktik faoliyatni maqsadga yo'naltirilgan holda rejalashtirish; xorijiy davlatlar huquqni muhofa qiluvchi organlarining mazkur turdagi jinoyatlarning oldini olishni tashkil etishdagi ijobiy tajribalarini o'rganish va ularni o'z faoliyatlariga tatbiq etish; alohida profilaktik choralar bilan cheklanmasdan, profilaktik chora-tadbirlar tizimini tashkillashtirish; boshqa huquqni muhofaza qiluvchi va davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikda profilaktik chora-tadbirlarni olib boorish zarur.

**Kredit munosabatlari va bank plastik kartalari bilan bog'liq firibgarlik jinoyatlari.** O'zganing pul mablag'larini o'g'irlangan (qalbakilashtirilgan) kredit yoki hisob kartasidan foydalangan holda talon-toroj qilish, agar naqd pul mablag'lari bankomat vositasida amalga oshirilgan bo'lsa, o'zganing mulkini o'g'irlash sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Biroq o'zganing bankdagi hisobida turgan pul mablag'larini o'g'irlangan (qalbakilashtirilgan) kredit yoki hisob kartasidan foydalangan holda talon-toroj qilish, faqat shaxs kredit, savdo yoki servis tashkilotining vakolatli xodimini aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan yanglishtirgan holdagina (masalan, savdo yoki servis markazida tovarlarga yoki xizmatlarga haq to'lash uchun bank kartasidan foydalangan holda shaxs xarid chiptasiga kartaning qonuniy egasi o'rniga imzo qo'yadi yoki uning nomiga qalbakilashtirilgan pasport taqdim etadi) firibgarlik sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Hozirda ko'plab banklarda "sms-banking" tizimi joriy qilinmoqda. Ularning qulay taraflaridan biri endilikda online tizimida ishlaydigan bank plastik kartalari orqali bank operatsiyalarini masofadan telefon yoki komputer vositalari orqali amalga oshirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining "Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risidagi" 8-sonli plenum qarorining 11-bandida, ijtimoiy to'lov, nafaqa, boshqa pul to'lovlari (masalan, kompensatsiyalar, sug'urta to'lovlari)ni yoki boshqa mulkning sodir bo'lishi qonunga ko'ra to'lovlar yoki mulkni olish uchun asos bo'ladigan holatlar mavjudligi (jumladan, oluvchining shaxsi, nogironligi, boqimandalari borligi, urush harakatlarida qatnashganligi, ishga joylashtirish imkoniyati yo'qligi, sug'urta hodisasi ro'y berganligi) to'g'risida tegishli qarorlar qabul qilishga vakolatli ijro hokimiyati, mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlari, muassasa yoki tashkilotlarga, bila turib, yolg'on ma'lumotlar taqdim etish yo'li bilan olish firibgarlik sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Quyida bir qator holatlarni ko'rib chiqib uning qanday sodir etilishi va undan qanday himoyalalanish choralarini ko'rish mumkin.

**Soxta bankomatlarning o'rnatilishi.** Ushbu holatda firibgarlar soxta bankomatlarni yasashadi va odam gavjum bo'lgan hududlarga o'rnatishadi. Shundan keyin undan foydalanmoqchi bo'lgan shaxs unga o'z plastik kartasini tiqadi. Ushbu holatda bankomat plastic kartani siqib qolishi yoki undagi terilgan pin-kodni o'zida saqlab qolishi mumkin.

**Maxsus moslama skimmerlarni o'rnatilishi.** Ushbu maxsus moslama vositasida firibgarlar terilgan pin-kodlarni osongina o'zlashtirib olishlari mumkin.



Yuqoridagi holatda maxsus o'rnatilgan mini-kamera vositasida plastic karta egasining pin-kodlari yozib olinmoqda.



O'rnatilgan soxta klaviatura yordamida pin-kodni aniqlash.

Yuqorida ta'kidlanib o'tilganidek, telefon vositalari orqali firibgarlik jinoyatlarini sodir etish ham keng uchrayotgan turlardan biridir. Jumladan, banklarda tashkil etilgan sms-banking tizimidan foydalangan holda, firibgarlar bank yoki mobil aloqa operatori nomidan turli mazmundagi smslarni junatish orqali, plastik karta kodi, bankdagi hisob varog'i bo'yicha operatsiyalarga, yoki plastic kartadagi pul mablag'larini tasarruf etishga imkon yaratmoqda. Masalan, telefon orqali plastic kartadagi pul mablag'lari yechib olinayotgani, agarda ko'rsatilgan raqamga plastic karta kodini zudlik bilan yuborilmasa, hisobingizdagi pullarni qaytarish iloji bulmasligi mazmunidagi sms keladi. Mijoz unga ishonib o'z maxsus kodlarini yuboradi va shu orqali firibgarlar tuzog'iga tushib qoladi.

### **Xulosa**

Firibgarlik jinoyatining subyekti boshqa talon-torojliklarga qaraganda maxsus xususiyatga, ya'ni ushbu subyektga o'zgalar mulki fuqaroviy-huquqiy, mehnat shartnomasi yoki maxsus topshiriqlar asosida topshirilganligi yoki uning ixtiyoriga o'tkazilishi bilan bog'liqligi, shuningdek bozor munosabatlari sharoitida oddiy fuqarolar yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi, ular ham o'zgalar mulkini shartnoma asosida qo'riqlash, tashib berish yoki kasanachilik asosida biron-bir faoliyat yuritishi mumkinligini inobatga olgan holda, yakka tartibda xo'jalik yurituvchi subyektlar ham mazkur jinoyatning subyekti bo'la olishi asoslab berildi. Shuningdek, firibgarlik jinoyati subyektining javobgarlikka tortish yoshi 16 yosh qilib o'rnatilganligining ijtimoiy zarurati ilmiy asoslantirildi.

Firibgarlik jinoyatining oldini olishga qaratilgan choralarni belgilashda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim:

– tadqiq etilayotgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslar tarkibining ijtimoiy-demografik tahlili ularning aksariyati (89,1 %) erkaklar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatadi, ammo oxirgi ikki yil davomida ayollar jinoyatchiligi (10,9 %) ham o'sib bormoqda. Mazkur turdagi jinoyatga qarshi kurashning profilaktik chora-tadbirlarini ishlab chiqishda aynan erkaklarga asosiy e'tibor qaratilishi lozim;

– o'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyatini sodir etgan shaxslarning 84,9 foizini yoshi 30 yoshdan va undan katta yoshdagi shaxslar tashkil etadi. Chunonchi, bu turdagi jinoyatlarni sodir



etishga moyillik cho'qqisi 35–55 yoshdagi kishilarga to'g'ri keladi, zero, shu yoshdagi shaxslarning jinoyat sodir etish ko'rsatgichi (56,6%) eng yuqori hisoblanadi;

Firibgarlik jinoyatining oldini olishda quyidagi jihatlarga alohida ahamiyat berish kerak:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hisobidan «ortiqcha» mahsulot paydo bo'lishining oldini olish bo'yicha nazoratni kuchaytirish;
- xo'jalik-moliyaviy nazorat o'rnatish;
- monopolistik faoliyatni nafaqat tovarlar bozorida, balki moliya bozorlarida ham tartibga solish, shuningdek, ushbu soha uchun professional kadrlarni tanlash va tayyorlash;
- maqsadga yo'naltirilgan profilaktika faoliyatini rejalashtirish;
- xorijiy davlatlar huquqni muhofaza qilish organlari bilan mazkur turdagi jinoyatlarning oldini olish bo'yicha tajriba almashtirish va ular bilan ushbu sohada hamkorlik o'rnatish;
- alohida profilaktik choralar bilan cheklanmasdan, profilaktika choralari tizimini tashkillashtirish;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'zaro va davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikda profilaktik chora-tadbirlarni olib borish;
- kadrlarni to'g'ri tanlash, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasida targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish.

#### REFERENCES

1. Sh.Y.Abduqodirov, U.M.Mirzaev. Mulkn talon-taroj qilganlik uchun jinoiy javobgarlik. – T.:TDYU. 2011.112 bet.
2. Щепалов С. Мошенничество – это умышленное причинение имущественного ущерба // Российская юстиция. – 2003.
3. Хафизова Л.С. Уголовно-правовые и криминологические аспекты противодействия финансовому мошенничеству. Автореф.канд. юрид. наук. Н. Новгород, 2008.
4. М.Н.Rustambaev. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. T.: "Ilm Ziyo".2011.1-5 tomlar.
5. Новоселова С.С. Организация предупреждения преступлений в сфере экономической деятельности // Российский следователь. №5. 2006.
6. Qalandarov M.M. O'zgal mulkini o'zlashtirish yoki zo'rlik ishlatmasdan talon-taroj qilish jinoyatlarini oldini olish. – T.: "IV". 2008-yil.56 bet.
7. Qalandarov M.M. Amaldagi jinoyat qonunchiligida o'zgal mulkini o'zlashtirish yoki zo'rlik ishlatmasdan talon-taroj qilish jinoyatining hozirgi zamon holati. – T.: "TDYU" 2010. 64 bet.
8. Вехов, В. Б. Компьютерные преступления: Способы совершения и раскрытия. / Под ред. Б.П. Смагоринского. - М.: Юрист, 2011. - 412 с.
9. Гаврилов, Д. В. Расследование мошенничества / Д. В. Гаврилов. - М.: Бек, 2008. - 205 с.
10. Криминология (Умумий қисм). Ниёзова С., Очилов Х., Алланова А. 2021
11. Антонов, И. О. Расследование мошенничества / И. О. Антонов. М.: Юрист, 2009. - 288 с.
12. Криминалистика: Расследование преступлений в сфере экономики: / Под ред. В.Д. Грабовского, А.Ф. Лубина. - М.: Проспект, 2010. - 612 с.

13. Митрохин, В. А. Мошенничество в сфере страхования / В. А. Митрохин // Мы и безопасность. - 2010. - №1 (3). - С. 26 - 29.
14. Носов, А. М. Проблемные вопросы расследования мошенничества / А. М. Носов // Криминалист. - 2010. - № 6. - С. 22 - 25.
15. Новиков, В. В. Объективная характеристика мошенничества / В. В. Новиков // Уголовное право. - 2011. - № 4. - С. 27 - 31.
16. Тараканова, Е. В. Держи карты ближе к орденам / Е. В. Тараканова // Эксперт. - 2008. - №11(128). - С. 95 - 100.
17. Ценова, Т. Л. Проблемы методики расследования коммерческого мошенничества / Т. Л. Ценова // Российский следователь. - 2008. - № 6. С. 22 - 27.
18. Шаров, А. В. Методика расследования мошенничеств в сфере оборота жилища / А. В. Шаров // Российский следователь. - 2011. - № 2. - С. 22 - 26.
19. Q.R.Abdurasulova. Kriminologiya. Toshkent. 2007-yil. 212 bet.  
Internet resurslari
20. <http://www.pravo.uz>
21. <http://www.uza.uz>
22. <http://www.lex.uz>
23. <http://www.gov.uz>
24. <http://www.minjust.uz>